

**IJODKORLIK TUSHUNCHASINING
ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI TALQINI**

Zulfanova Nigina Nuritdinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijodkorlik tushunchasining adabiyotshunoslikdagi talqini borasida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, Ijodkorlikning badiiy mazmuni o'zida nafaqat muallifning individual fikrini, balki, jamiyat ruhiy holatini va davrning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ham mujassam etganligi bilan alohida ahamiyatli hisoblanadi. Ijodkorlikning badiiy mazmuni o'zida nafaqat muallifning individual fikrini, balki, jamiyat ruhiy holatini va davrning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ham mujassam etganligi bilan alohida ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ijod, jamiyat, kishilar, ong, tafakkur, ruhiy holat, jamiyat fikr, ijtimoiy-falsafiy qarashlar

Bizga ma'lumki, ijodkorlik inson tafakkurining eng yuqori shakli sifatida ijtimoiy hayotimizning turli jabhalarida, masalan, tarixan madaniyat, san'at va adabiyot rivojining markazida turgan²³. Insoniyat nafaqat yangi g'oyalarni yaratish jarayoni, balki, mavjud tajribani estetik jihatdan yangicha talqin etish qobiliyatiga egaligi barchaga birdek ma'lum²⁴. Avvalo, ijodkorlikning badiiy mazmuni deganda, inson qalbida va tafakkurida paydo bo'ladigan g'oya, tuyg'u va estetik kechinmalar tizimi tushunilsa, badiiy mazmun esa, bu adabiy asarning ichki mohiyati bo'lib, unda ifodalangan g'oyaviy-estetik tizim, hayotiy voqelikni adib nigohi bilan qayta yaratuvchi ma'naviy qatlamni tashkil etadi²⁵.

Shu o'rinda shakl va mazmun birligi masalasiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Bu tushunchalar qadimdan estetik tafakkur markazida bo'lganligini, Aristotelning *Poetika* asarida shakl va mazmunning uyg'unligi san'at asarining go'zallik mezoni sifatida ko'rsatilgan²⁶. Keltirilgan mazkur g'oya Sharq mumtoz adabiyotida ham davom etganligi, Alisher Navoiyning "*Mezon ul-avzon*" asaridagi badiiy mazmunni inson qalbining samimiy ifodasi va ruhiy go'zallik manbai sifatida baholaganligida ko'rinadi²⁷.

Ijodkorlikning badiiy mazmuni o'zida nafaqat muallifning individual fikrini, balki, jamiyat ruhiy holatini va davrning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ham mujassam etganligi bilan alohida ahamiyatli hisoblanadi. Shu boisdan,

²³ Kamyu, A. *The Myth of Sisyphus*. Vintage International, 1991. – 201 p.

²⁴ Shopenhauer, A. *The World as Will and Representation*. Dover Publications, 1969. – 213 p.

²⁵ Losev, A. F. *Filosofiya imeni i simvola*. Moscow: Mysl', 1980. – 209 s.

²⁶ Aristotel. *Poetika*. Translated by Ingram Bywater. Oxford: Clarendon Press, 1907. – 34 p.

²⁷ Navoiy, A. *Mezon ul-avzon*. Tashkent: Sharq, 2000. – 109 b.



badiiy mazmunni tahlil qilishda qadimdan, adabiy asarning faqat individual yaratuvchilik mahsuli sifatida emas, balki, ma'naviy-madaniy tizimning ajralmas qismi sifatida o'rganilib kelingan²⁸.

Ilmiy tadqiqotimizni dastlabki bobining mazkur faslida, ijodkorlikning badiiy mazmuni va poetik ifodasi borasida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, poetik ifoda va badiiy mazmunning o'zaro bog'liqligi borasida, ilmiy asarlardagi batafsil tahlili va ta'rifini keltiramiz. Poetik ifoda tushunchasi adabiy asarning estetik energiyasini tashuvchi til vositalari tizimi hisoblanib, u mazmunni badiiy obraz orqali yetkazadi²⁹ va bu orqali ijodkor (yozuvchi yoki shoir) o'z ichki dunyosini tashqi shaklga ko'chirishligi natijasida so'z orqali yangi olam yaratadi³⁰. Shu boisdan, ijodkorlikda poetik ifoda mazmunni nafaqat bayon qiladi, balki, uni ruhlantiradi, estetik ta'sir kuchini oshiradi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Adabiyotshunoslikda poetik ifoda badiiy tafakkurning asosiy ko'rsatkichi sifatida talqin qilinib, har bir davr, har bir adabiy maktabning o'ziga xos poetik ifoda uslubiga egaligi, romantizmda u his-tuyg'ularga boy, realizmda esa hayotiy voqelikni aniq ko'rsatishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. So'z poetik ifodaning markazidan o'rin egallab, oddiy aloqa vositasi emas, balki, estetik tizimning yuragi obrazli tafakkurning mahsuli hisoblanganligi³¹ sababli, badiiy til tahlili adabiyotshunoslikda ijodkorlikning eng muhim ko'rinishlaridan biridir. Davrlar o'tishi bilan, modernizm va postmodernizm adabiyotida poetik ifoda yanada murakkablashib, til o'zi mustaqil estetik obyektga aylanishi natijasida, ijodkorlikning yangi shakllari, metaforik fikrlash va intertekstual tarmoq orqali ifoda imkoniyatlari kengaydi³².

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytamizki, ijodkorlikning badiiy mazmuni va poetik ifodasi bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Mazmun avvalo, fikrning g'oyaviy asosini tashkil etsa, poetik ifoda esa, shu fikrning estetik shakli hisoblanadi. Mazmun ifodasiz mavjud bo'lolmaydi, ifoda esa mazmunsiz o'z qimmatini yo'qotadi. Shu sababli, har qanday adabiy asarning badiiy kuchi mazmun va ifoda uyg'unligida namoyon bo'ladi. Keltirilgan adabiy asarning badiiy kuchi mazmun va ifoda uyg'unligi, adabiyot tarixida bu uyg'unlik ko'plab asarlarda o'z ifodasini topgan. Masalan, Uilyam Shekspirning *"Hamlet"*³³ tragediyasi, bu uyg'unlikning yorqin namunasi

²⁸ Pronkin, D. D., Pronkin, S. V. *Ijod odysseyasi: mavjudlikning borliq orqali amalga oshishi*. Moscow: Nauka, 2010. – 189 b.

²⁹ Jakobson, R. *Linguistics and Poetics*. In: Sebeok, T. (ed.) *Style in Language*. MIT Press, 1960. – 101 p.

³⁰ Bely, A. *The Riddle of the World*. London: John Lane, 1920. – 108 p

³¹ Abrams, M. H. *A Glossary of Literary Terms*. 8th ed. Cengage, 2015. – 89 p

³² Hutcheon, L. *A Poetics of Postmodernism*. Routledge, 1988. – 67 p.

³³ Shakespeare, W. *Hamlet*. The Arden Shakespeare, Third Series. Ed. Ann Thompson and Neil Taylor. London: Bloomsbury, 2006. –19-20 pp.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

sifatida keltirishimiz mumkin. Asarning mazmun mohiyatida, inson vijdoni, ikkilanish, adolat va insoniylik muammolari teran ifoda etilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo, bu g'oyalar adibning kuchli mohirona poetik tili, monologlarining falsafiy chuqurligi va dramatik shakli bilan uyg'unlashganligi tufayli asar o'lmas qadriyatga aylangan:

*"To be, or not to be, that is the question..."*³⁴ — bu birgina satrda ham fikriy, ham estetik kuch mujassamdir.

Amerika adabiyotidan yorqin namoyondasi Ernest Hemingveyning *"The Old Man and the Sea"*³⁵ qissasi misol bo'la oladi. Mazkur asarning mohiyatida, insonning tabiat bilan kurashi, iroda va g'ururining sinovi yoritilgan. Biroq, bu falsafiy mazmun yozuvchiga xos "minimalizm" uslubi, ya'ni, sodda, ammo chuqur ma'noli ifoda vositalari orqali ta'sirli ko'rinish oladi. Qissa tili soddaligiga qaramay, unda ruhiy kuch, sabr va insoniy matonat badiiy go'zallik bilan uyg'unlashga³⁶. Keltirilgan ikki adib, Shekspir va Hemingvey ijodidan keltirilgan shox asralari misolida, badiiy kuch aynan mazmun bilan ifoda bir-birini to'ldirganda, asar o'zining chinakam estetik ta'siriga ega bo'lishligi ko'rsatilgan. Mazmun va ifoda uyg'unligi adabiyotning ruhiy, estetik va ijtimoiy ta'sirchanligini belgilaydi. Ingliz va amerika adabiyotining buyuk namunalari *"Hamlet"* va *"The Old Man and the Sea"* bu qonuniyatning universal san'at tamoyili ekanligini tasdiqlaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ijodkorlikning badiiy mazmuni va poetik ifodasi adabiyotshunoslikda markaziy o'rin tutadi, chunki, ular asarning estetik va falsafiy qiymatini belgilovchi asosiy omillardir. Badiiy mazmun ijodkorning dunyoqarashi, estetik va ijtimoiy-falsafiy qarashlarining obrazli ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu mazmun esa poetik ifoda orqali badiiy shaklga ega bo'ladi. Mazmun va ifoda o'rtasidagi uyg'unlik adabiy asarning estetik mukammalligini belgilaydi. Shu sababli ijodkorlikni faqat yangi g'oya yoki kontseptsiya yaratish sifatida emas, balki uni badiiy shaklga aylantirish va estetik tizim ichida amalga oshirish qobiliyati sifatida tahlil qilish lozim. Badiiy mazmunning chuqurligi va poetik ifodaning go'zalligi uyg'unlashganda, natija sifatida paydo bo'lgan asar haqiqiy ijod mahsuli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Aristotel. *Poetika*. Translated by Ingram Bywater. Oxford: Clarendon Press, 1907. — 34 p.

³⁴ Shakespeare, William. Jenkins, Harold, editor. *Hamlet*. Arden Shakespeare

[ISBN 978-1903436677](#) 1982. — 18 – 20 pp.

³⁵ [Baker, Carlos](#). "Hemingway's Ancient Mariner". *Ernest Hemingway: Critiques of Four Major Novels*. New York: [Charles Scribner's Sons](#). 1962. — 156–173 pp. [OCLC 564729505](#)

³⁶ Hemingway, E. *The Old Man and the Sea*. New York: Charles Scribner's Sons, 1952. —213 p



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

2. Abrams, M. H. *A Glossary of Literary Terms*. 8th ed. Cengage, 2015. – 89 p
3. [Baker, Carlos](#). "Hemingway's Ancient Mariner". *Ernest Hemingway: Critiques of Four Major Novels*. New York: [Charles Scribner's Sons](#). 1962. – 156–173 pp. [OCLC 564729505](#)
4. Bely, A. *The Riddle of the World*. London: John Lane, 1920. – 108 p
5. Hemingway, E. *The Old Man and the Sea*. New York: Charles Scribner's Sons, 1952. – 213 p
6. Hutcheon, L. *A Poetics of Postmodernism*. Routledge, 1988. – 67 p.
7. Kamyu, A. *The Myth of Sisyphus*. Vintage International, 1991. – 201 p.
8. Losev, A. F. *Filosofiya imeni i simvola*. Moscow: Mysl', 1980. – 209 s.
9. Navoiy, A. *Mezon ul-avzon*. Tashkent: Sharq, 2000. – 109 b.
10. Pronkin, D. D., Pronkin, S. V. *Ijod odyseyasi: mavjudlikning borliq orqali amalga oshishi*. Moscow: Nauka, 2010. – 189 b.
11. Jakobson, R. *Linguistics and Poetics*. In: Sebeok, T. (ed.) *Style in Language*. MIT Press, 1960. – 101 p.
12. Shakespeare, W. *Hamlet*. The Arden Shakespeare, Third Series. Ed. Ann Thompson and Neil Taylor. London: Bloomsbury, 2006. – 19-20 pp.
13. Shakespeare, William. Jenkins, Harold, editor. *Hamlet*. Arden Shakespeare [ISBN 978-1903436677](#) 1982. – 18 – 20 pp.
14. Shopenhauer, A. *The World as Will and Representation*. Dover Publications, 1969. – 213 p.

